



FORMATION AND STAGES OF HISTORICAL DEVELOPMENT OF POTTERY ART IN UZBEKISTAN

Jurayev Xayrullo Narzullo o'g'li

Faculty of National Costume and Art, Department of "Artistic Graphics and Design"
2nd Year Master's Student in the Specialty of Fine and Applied Decorative Arts
Termez State University

Turayev Xumoyiddin Abdug'afforovich

Director of the Registrar's Office of Termez State University.

Doctor of Philosophy (PhD) in Pedagogical Sciences, Associate Professor

turayev@tersu.uz

Abstract

The article emphasizes that the formation and development of pottery in Uzbekistan in ancient times laid a solid foundation for the emergence of regional pottery schools in subsequent historical periods. Specifically, it notes that the technological expertise, decorative traditions, formal compositions, and aesthetic views that developed during this period directly influenced the flourishing of medieval pottery.

Keywords: Decorative traditions, formal compositions, cultural heritage, developed pottery, folk art, art history and craft history.

Introduction

ZBEKISTONDA KULOLCHILIK SAN'ATINING SHAKLLANISHI VA TARIXIY RIVOJLANISH BOSQICHLARI

Jurayev Xayrullo Narzullo o'g'li

Termiz davlat universiteti. Milliy libos va san'at fakulteti. "Badiiy grafika va dizayn" kafedrası. Tasviriy va amaliy bezak san'ati mutaxassisligi 2-bosqich magistranti.

Turayev Xumoyiddin Abdug'afforovich.

Termiz davlat universiteti Registrator ofisi direktori. Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent.

turayev@tersu.uz



Annotatsiya:

Maqolada O‘zbekiston hududida kulolchilik san’atining qadimgi davrlardagi shakllanishi va rivojlanishi keyingi tarixiy davrlarda yuzaga kelgan hududiy kulolchilik maktablarining vujudga kelishi uchun mustahkam poydevor yaratdi. Ayniqsa, bu davrda shakllangan texnologik tajriba, bezak an’analari, shakliy kompozitsiyalar hamda estetik qarashlar o‘rta asrlar kulolchilik san’atining yuksalishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi deb yoritib berilgan.

Kalit so‘zlar: bezak an’analari, shakliy kompozitsiyalar, madaniy merosni, shakllangan kulolchilik san’ati, xalq amaliy san’ati, san’atshunoslik, hunarmandchilik tarixi.

Аннотация:

В статье подчеркивается, что формирование и развитие гончарного искусства в Узбекистане в древности заложили прочную основу для возникновения региональных гончарных школ в последующие исторические периоды. В частности, отмечается, что технологический опыт, декоративные традиции, формальные композиции и эстетические взгляды, сформировавшиеся в этот период, оказали непосредственное влияние на расцвет средневекового гончарного искусства.

Ключевые слова: Декоративные традиции, формальные композиции, культурное наследие, развитое гончарное искусство, народное искусство, история искусства и история ремесел.

Kirish (Introduction)

Bugungi kunda milliy madaniy merosni asrab-avaylash, uni ilmiy asosda o‘rganish hamda kelajak avlodga yetkazish davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, xalq amaliy bezak san’atining muhim turlaridan biri bo‘lgan kulolchilik san’ati o‘zining qadimiyligi, badiiy-estetik boyligi hamda tarixiy ahamiyati bilan alohida e’tiborga loyiqdir. O‘zbekiston hududida kulolchilik san’ati ming yillik tarixga ega bo‘lib, u xalqning turmush tarzi, estetik qarashlari, milliy an’analari va badiiy tafakkurini o‘zida mujassam etgan noyob san’at turi sifatida shakllangan.



Kulolchilik san'ati dastlab insonning kundalik ehtiyojlarini qondirish vositasi sifatida yuzaga kelgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan u yuksak badiiy darajaga ko'tarilib, xalq amaliy bezak san'atining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan. Ayniqsa, sopol buyumlarning shakliy tuzilishi, bezak kompozitsiyasi, ranglar uyg'unligi hamda sir berish texnologiyalarining mukammalligi o'zbek kulolchilik san'atining o'ziga xos badiiy maktab sifatida shakllanganini ko'rsatadi. Shu jihatdan kulolchilik san'ati milliy madaniyatimizning ajralmas tarkibiy qismi sifatida alohida ilmiy tadqiqot obyekti tashkil etadi.

O'zbekiston hududida qadimdan shakllangan Rishton, G'ijduvon, Xiva, Samarqand va Shahrisabz kulolchilik maktablari o'zining boy an'analari, badiiy-uslubiy xususiyatlari hamda texnologik yondashuvlari bilan bir-biridan farq qiladi. Ushbu maktablarning shakllanishi va rivojlanishida usta kulollarning ijodiy faoliyati muhim ahamiyat kasb etgan. Ular tomonidan yaratilgan sopol buyumlar nafaqat amaliy ahamiyatga ega bo'lib qolmasdan, balki yuksak badiiy-estetik qiymatga ega san'at asarlari sifatida ham e'tirof etiladi. Shu sababli usta kulollarning milliy kulolchilik san'ati rivojiga qo'shgan hissasini ilmiy asosda o'rganish dolzarb ilmiy vazifalardan biri hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida milliy hunarmandchilik turlarini tiklash va rivojlantirishga alohida e'tibor qaratildi. Natijada kulolchilik san'atini qo'llab-quvvatlash, usta kulollar faoliyatini rag'batlantirish hamda hududiy kulolchilik maktablarini saqlab qolish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Bu esa kulolchilik san'atining nafaqat tarixiy meros sifatida, balki zamonaviy badiiy ijod yo'nalishi sifatida ham rivojlanishiga zamin yaratdi. Shu bilan birga, kulolchilik san'atini ilmiy jihatdan tizimli o'rganish, uning hududiy maktablari faoliyatini tahlil qilish hamda usta kulollarning ijodiy merosini san'atshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etish zarurati yanada ortib bormoqda.

Tadqiqotning maqsadi: O'zbekiston hududida shakllangan kulolchilik san'atining tarixiy rivojlanish bosqichlarini ilmiy asosda o'rganish, milliy kulolchilik maktablarining badiiy-uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish hamda o'zbekistonlik usta kulollarning kulolchilik san'ati taraqqiyotiga qo'shgan hissalarini san'atshunoslik nuqtai nazaridan tadqiq etishdan iborat. Shuningdek, kulolchilik san'atining zamonaviy rivojlanish jarayonlarini o'rganish, an'anaviy kulolchilik tajribalarini saqlash va rivojlantirishning ilmiy-metodik asoslarini ishlab chiqish hamda ularni



ta'lim tizimiga tatbiq etish imkoniyatlarini aniqlash ham tadqiqotning muhim maqsadlaridan biri hisoblanadi.

Tadqiqotning vazifalari: Mazkur tadqiqot ishida belgilangan maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy vazifalarni amalga oshirish ko'zda tutilgan.

- kulolchilik san'atining kelib chiqishi va tarixiy shakllanish bosqichlarini arxeologik, tarixiy va san'atshunoslik manbalari asosida o'rganish;
- O'zbekiston hududida kulolchilik san'atining rivojlanishiga ta'sir etgan ijtimoiy-madaniy omillarni ilmiy tahlil qilish;
- Movarounnahr hududida shakllangan kulolchilik markazlarining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini aniqlash;
- Rishton kulolchilik maktabining shakllanishi, rivojlanish jarayonlari va badiiy-uslubiy xususiyatlarini tahlil qilish;
- G'ijduvon kulolchilik maktabining o'ziga xos texnologik va dekorativ xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish;
- Samarqand kulolchilik maktabining shakllanish bosqichlari va zamonaviy rivojlanish jarayonlarini tahlil qilish;
- hududiy kulolchilik maktablari o'rtasidagi uslubiy farqlar va umumiy badiiy xususiyatlarni taqqoslash asosida aniqlash;

Tadqiqotning ilmiy yangiligi: Mazkur magistrlik dissertatsiyasining ilmiy yangiligi shundan iboratki, unda O'zbekiston kulolchilik san'atining tarixiy rivojlanish bosqichlari hamda hududiy kulolchilik maktablarining badiiy-uslubiy xususiyatlari o'zbekistonlik usta kulollarning ijodiy faoliyati bilan uzviy bog'liqlikda kompleks tarzda san'atshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilindi. Tadqiqot jarayonida milliy kulolchilik an'alarining shakllanishi, rivojlanishi va zamonaviy bosqichdagi ahamiyati tizimli yondashuv asosida yoritildi.

- O'zbekiston hududida shakllangan kulolchilik san'atining tarixiy taraqqiyot bosqichlari arxeologik, tarixiy va san'atshunoslik manbalari asosida tizimli ravishda umumlashtirildi va ilmiy jihatdan izohlandi;
- Rishton, G'ijduvon, Xiva hamda Samarqand kulolchilik maktablarining badiiy-uslubiy xususiyatlari usta kulollar ijodiy faoliyati misolida qiyosiy tahlil asosida yoritildi;



- o‘zbekistonlik mashhur usta kulollarning milliy kulolchilik san’ati rivojiga qo‘shgan hissalarini ilk bor kompleks tarzda san’atshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilindi;

- kulolchilik buyumlarining shakliy tuzilishi, bezak kompozitsiyasi, ranglar uyg‘unligi hamda sir berish texnologiyalarining hududiy o‘ziga xos jihatlari ilmiy asosda tizimlashtirildi;

Mazkur ilmiy natijalar kulolchilik san’atining tarixiy ildizlari, hududiy maktablari hamda usta kulollarning badiiy merosini zamonaviy san’atshunoslik yondashuvlari asosida o‘rganishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Tadqiqotning asosiy masalalari va farazlari: O‘zbekiston hududida shakllangan kulolchilik san’atining tarixiy taraqqiyot bosqichlarini o‘rganish, hududiy kulolchilik maktablarining badiiy-uslubiy xususiyatlarini aniqlash hamda o‘zbekistonlik usta kulollarning milliy kulolchilik san’ati rivojiga qo‘shgan hissalarini ilmiy asosda tahlil qilish asosiy masalalar sifatida belgilandi.

Tadqiqot jarayonida kulolchilik san’atining shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatgan tarixiy, ijtimoiy-madaniy hamda badiiy omillarni aniqlash, hududiy maktablarning o‘ziga xos bezak tizimi, shakliy yechimlari va ranglar uyg‘unligini san’atshunoslik nuqtai nazaridan tahlil qilish muhim ilmiy masalalardan biri sifatida qaraldi.

Shuningdek, kulolchilik san’atining rivojlanishida usta kulollarning ijodiy faoliyati, ustoz-shogird an’alarining davomiyligi, milliy kulolchilik merosining saqlanishi hamda zamonaviy kulolchilik jarayonida an’ana va innovatsiya uyg‘unligining o‘rni tadqiqotning asosiy ilmiy masalalari qatoriga kiritildi.

Tadqiqot ishida kulolchilik san’atining tarixiy ildizlari va hududiy maktablarining shakllanish jarayonlari o‘rtasidagi bog‘liqlikni aniqlash, usta kulollarning milliy san’at rivojidadagi xizmatlarini ilmiy asosda baholash hamda ularning ijodiy merosini ta’lim tizimida qo‘llash imkoniyatlarini asoslab berish ham muhim ilmiy vazifalardan biri sifatida belgilandi.

- agar O‘zbekiston hududida shakllangan kulolchilik maktablarining tarixiy taraqqiyot bosqichlari hamda badiiy-uslubiy xususiyatlari tizimli ravishda o‘rganilsa, milliy kulolchilik san’atining rivojlanish qonuniyatlarini aniqlash imkoniyati kengayadi;



- agar o‘zbekistonlik usta kulollarning ijodiy merosi san’atshunoslik nuqtai nazaridan kompleks tahlil qilinsa, ularning milliy kulolchilik san’ati taraqqiyotidagi o‘rni va hissasi yanada aniqroq ilmiy asosda yoritiladi;

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonlik usta kulollarning milliy kulolchilik san’ati rivojiga qo‘shgan hissalar - xalq amaliy san’ati, san’atshunoslik, hunarmandchilik tarixi hamda badiiy ta’lim metodikasi yo‘nalishlaridagi ilmiy manbalar asosida o‘rganildi. O‘zbekiston xalq amaliy san’ati tarixini o‘rganishda san’atshunos olim S. Bulatovning ilmiy ishlari muhim ahamiyat kasb etadi. Olimning tadqiqotlarida o‘zbek xalq amaliy bezak san’atining shakllanish bosqichlari, milliy ornament tizimi hamda hunarmandchilik turlarining badiiy xususiyatlari keng yoritilgan. Ayniqsa, uning naqsh san’ati va amaliy bezak san’ati tarixiga oid ishlari kulolchilik buyumlarining dekorativ tizimini tahlil qilishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi.

San’atshunos olimlar G. A. Pugachenkova va L. I. Rempel tomonidan olib borilgan tadqiqotlarda Markaziy Osiyo hududidagi amaliy san’at turlarining tarixiy taraqqiyot bosqichlari ilmiy asosda tahlil qilingan. Ushbu ishlarda o‘rta asrlar davri sopol buyumlarining shakliy tuzilishi, ornament kompozitsiyasi hamda ranglar tizimi haqida muhim ilmiy xulosalar berilgan. Ayniqsa, me’moriy bezak san’ati va kulolchilik o‘rtasidagi uzviy bog‘liqlik masalasi chuqur yoritilganligi mazkur tadqiqot uchun muhim metodologik manba hisoblanadi.

O‘zbek xalq amaliy san’atining rivojlanish jarayonlari M. Axmedov, A. Hakimov, S. Sodiqov kabi olimlar tomonidan ham keng o‘rganilgan. Ushbu tadqiqotlarda kulolchilik san’ati xalq hunarmandchiligining muhim yo‘nalishi sifatida tahlil qilinib, uning hududiy maktablari hamda milliy badiiy xususiyatlari haqida qimmatli ilmiy ma’lumotlar berilgan. Ayniqsa, amaliy san’atning tarixiy ildizlari va zamonaviy rivojlanish bosqichlarini yoritishda mazkur manbalar muhim nazariy asos vazifasini bajaradi.

Kulolchilik maktablarining hududiy xususiyatlarini o‘rganishda Rishton, G‘ijduvon va Xorazm kulolchilik markazlariga bag‘ishlangan ilmiy va katalog materiallari ham alohida ahamiyatga ega. Ushbu manbalarda kulolchilik buyumlarining shakli, rang uyg‘unligi, sir texnologiyasi hamda ornament kompozitsiyasining o‘ziga xos jihatlari tahlil qilingan. Ayniqsa, Rishton kulolchiligidagi ishqorli sir texnologiyasi, G‘ijduvon kulolchiligidagi tabiiy rang tizimi hamda Xorazm kulolchiligidagi oq-ko‘k



rang uyg'unligi milliy kulolchilik san'atining hududiy xususiyatlarini ochib berishda muhim ilmiy material hisoblanadi.

Hunarmandchilik an'analarining uzviyligini ta'minlashda ustoz-shogird tizimining ahamiyati masalasi pedagogik yo'nalishdagi tadqiqotlarda ham o'z aksini topgan. Jumladan, S. Abdirasilov, B. Qodirov, R. Xasanov kabi olimlarning tasviriy san'atni o'qitish metodikasiga oid ishlari kulolchilik san'atini ta'lim tizimida o'qitishning ilmiy asoslarini yoritishda muhim manba bo'lib xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlarda amaliy san'at fanlarini o'qitishda nazariy bilim va amaliy mashg'ulotlar uyg'unligini ta'minlash zarurligi asoslab berilgan.

Natijalar va munozara. Kulolchilik san'ati insoniyat tarixidagi eng qadimiy hunarmandchilik turlaridan biri hisoblanib, u ibtidoiy jamiyat davridayoq insonlarning turmush ehtiyojlari asosida shakllangan. Dastlab sopol buyumlar kundalik hayotda oziq-ovqat saqlash, suv tashish va turli xo'jalik ishlarida foydalanish uchun yaratilgan bo'lsa-da, vaqt o'tishi bilan ular badiiy-estetik mazmun kasb eta boshlagan. Shu tariqa kulolchilik oddiy amaliy faoliyatdan xalq amaliy bezak san'atining muhim yo'nalishlaridan biriga aylangan.

Markaziy Osiyo hududi, xususan hozirgi O'zbekiston hududi kulolchilik san'ati rivojining eng qadimiy markazlaridan biri hisoblanadi. Arxeologik tadqiqotlar natijalari shuni ko'rsatadiki, bu hududda kulolchilik miloddan avvalgi neolit davridayoq shakllana boshlagan. Dastlabki sopol buyumlar qo'lda yasalgan bo'lib, ularning shakli sodda, bezaklari esa oddiy geometrik naqshlardan iborat bo'lgan. Bu davr sopol buyumlari insonlarning tabiiy muhit bilan bevosita aloqasi hamda ularning amaliy ehtiyojlari asosida yaratilganligini ko'rsatadi.

O'zbekiston hududida kulolchilik san'atining dastlabki namunalari Surxondaryo vohasidagi Sopollitepa yodgorligidan topilgan sopol buyumlar orqali keng o'rganilgan. Ushbu hududdan topilgan arxeologik topilmalar kulolchilik texnologiyasining dastlabki bosqichlari haqida muhim ma'lumot beradi. Ayniqsa, sopol idishlarning shakliy tuzilishi, ularning sirtiga tushirilgan chiziqli va geometrik bezaklar o'sha davr hunarmandlarining badiiy tafakkuri shakllana boshlaganini ko'rsatadi.

Miloddan avvalgi bronza davriga kelib kulolchilik san'ati sezilarli darajada rivojlangan. Bu davrda sopol buyumlar tayyorlashda maxsus kulolchilik charxidan foydalanish yo'lga qo'yilgan bo'lib, bu esa buyumlarning shakliy aniqligi va

simmetriyasini oshirishga xizmat qilgan. Shuningdek, sopol buyumlarning sirtini jilolash, ularga turli rang berish hamda murakkabroq bezaklar bilan boyitish jarayoni keng tarqala boshlagan. Natijada kulolchilik buyumlari nafaqat maishiy ehtiyojlarni qondirish vositasi, balki estetik qadriyatlarni ifodalovchi san'at asari sifatida ham shakllangan.



1-rasm. Antik davr kulolchilik san'atiga oid sopol idish namunasi

Qadimgi Xorazm hududida joylashgan Tuproqqal'a yodgorligidan topilgan sopol buyumlar ham kulolchilik san'atining yuqori darajada rivojlanganini ko'rsatadi. Ushbu buyumlar shaklining mukammalligi, ularning yuzasiga ishlangan bezaklarning murakkabligi hamda texnologik jihatdan puxta ishlanganligi bilan ajralib turadi. Bu esa qadimgi hunarmandlarning material bilan ishlash tajribasi yuqori bo'lganini ko'rsatadi.

Kulolchilik san'atining qadimgi davrlardagi taraqqiyotida tabiiy xom ashyoning mavjudligi ham muhim rol o'ynagan. O'zbekiston hududining ko'plab hududlarida yuqori sifatli gil konlarining mavjudligi kulolchilik ishlab chiqarishining rivojlanishiga qulay sharoit yaratgan. Ayniqsa, Farg'ona vodiysi, Zarafshon vohasi hamda Xorazm hududlarida uchraydigan tabiiy gil turlari sopol buyumlar tayyorlash uchun juda qulay hisoblangan.

Qadimgi davrlarda kulolchilik san'ati jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy hayoti bilan ham chambarchas bog'liq holda rivojlangan. Sopol buyumlar nafaqat maishiy ehtiyojlar uchun, balki diniy marosimlarda ham keng qo'llanilgan. Ayrim sopol idishlarning yuzasiga ishlangan ramziy belgilar va naqshlar qadimgi odamlarning dunyoqarashi, e'tiqodi hamda tasavvurlarini ifodalagan.



5-rasm. Qadimgi kulolchilik san'atiga oid yirik hajmli sopol idish.

Shuningdek, qadimgi davr kulolchilik buyumlarida geometrik naqshlar bilan bir qatorda o'simliksimon bezak elementlari ham uchray boshlagan. Bu esa kulolchilik san'atida dekorativ bezak tizimining shakllanish jarayoni boshlanganini ko'rsatadi. Naqshlarning bunday rivojlanishi keyingi davrlarda shakllangan hududiy kulolchilik maktablarining paydo bo'lishi uchun muhim asos bo'lib xizmat qilgan.

Umuman olganda, O'zbekiston hududida kulolchilik san'atining qadimgi davrlardagi taraqqiyoti keyingi asrlarda shakllangan milliy kulolchilik maktablarining yuzaga kelishida muhim tarixiy poydevor vazifasini bajargan. Aynan shu davrda shakllangan texnologik tajriba, shakliy yechimlar va bezak an'analari keyingi davr kulolchilik san'ati rivojining asosiy yo'nalishlarini belgilab bergan.

Qadimgi davrlarda kulolchilik san'atining rivojlanishida ishlab chiqarish texnologiyalarining takomillashuvi ham muhim ahamiyat kasb etgan. Dastlab sopol buyumlar qo'lda yasalgan bo'lsa, keyinchalik kulolchilik charxining paydo bo'lishi bilan buyumlarning shakli yanada mukammallashib, ularning sifati sezilarli darajada oshgan. Kulolchilik charxining qo'llanilishi nafaqat ishlab chiqarish jarayonini tezlashtirgan, balki buyumlarning simmetrik va estetik jihatdan mukammal bo'lishiga ham imkon yaratgan. Bu esa kulolchilikni oddiy hunarmandchilikdan asta-sekin badiiy-amaliy san'at darajasiga olib chiqdi.



4-rasm. Qadimgi va ilk oʻrta asrlar davriga oid bezakli sopol idish

Qadimgi davr kulolchiligida sopol buyumlarning funksional turlari ham kengayib bordi. Dastlab oddiy xoʻjalik idishlari - kosa, xum, koʻza, lagan, qozoncha kabi buyumlar tayyorlangan boʻlsa, keyinchalik marosimiy va bezak xarakteriga ega sopol buyumlar ham ishlab chiqarila boshlandi. Bu jarayon kulolchilikning jamiyat madaniy hayotidagi oʻrni tobora ortib borayotganidan dalolat beradi.

Kulolchilik sanʼatining rivojlanishida qadimgi savdo yoʻllari ham muhim rol oʻynagan. Markaziy Osiyo hududi Buyuk Ipak yoʻli orqali Sharq va Gʻarb mamlakatlarini bogʻlab turganligi sababli bu hududda madaniy aloqalar keng rivojlangan. Natijada turli hududlarning badiiy anʼanalari oʻzaro uygʻunlashib, kulolchilik sanʼatining yangi shakl va uslublari yuzaga kelgan. Ayniqsa, sopol buyumlarning bezak tizimida uchraydigan ayrim motivlar boshqa madaniyatlar bilan oʻzaro aloqalar mavjud boʻlganini koʻrsatadi.

Qadimgi davr kulolchilik buyumlarining yana bir muhim jihati ularning texnologik jihatdan puxta ishlanganligidadir. Sopol buyumlar tayyorlashda gilni tozalash, uni qayta ishlash, quritish va pishirish jarayonlari aniq tartib asosida amalga oshirilgan. Bu jarayonlar hunarmandlarning material xususiyatlarini chuqur bilganliklarini koʻrsatadi. Ayniqsa, sopol buyumlarni yuqori haroratda pishirish orqali ularning



mustahkamligini oshirish usullarining qo‘llanilishi qadimgi kulollarning texnologik tajribasi yetarlicha rivojlanganidan dalolat beradi.

Qadimgi davrlarda kulolchilik ishlab chiqarishining rivojlanishi jamiyatda hunarmandchilikning mustaqil kasb sifatida shakllanishiga ham olib kelgan. Ayrim arxeologik yodgorliklardan topilgan maxsus kulolchilik ustaxonalari hunarmandlarning alohida ishlab chiqarish markazlarida faoliyat yuritganliklarini ko‘rsatadi. Bu esa kulolchilik san’atining ijtimoiy-iqtisodiy hayotda muhim o‘rin tutganidan dalolat beradi.

Qadimgi davr kulolchilik buyumlarining shakliy xilma-xilligi ham alohida e’tiborga loyiqdir. Xususan, katta hajmli xumlar, suv saqlash uchun mo‘ljallangan ko‘zalar, don saqlash idishlari, turli o‘lchamdagi laganlar hamda marosimiy maqsadlarda ishlatilgan sopol buyumlar tayyorlangan. Bu buyumlarning shakliy yechimlari nafaqat funksional talablar asosida, balki estetik qarashlar asosida ham takomillashtirib borilgan. Natijada kulolchilik buyumlari insonlarning kundalik hayotida keng qo‘llanilishi bilan bir qatorda, ularning badiiy didini shakllantiruvchi muhim vositaga aylangan.

Qadimgi davr kulolchiligida bezak elementlarining asta-sekin murakkablashib borishi ham ushbu san’at turining rivojlanish bosqichlarini yaqqol ko‘rsatadi. Dastlab sodda geometrik chiziqlar, parallel va to‘lqinsimon tasvirlar bilan bezatilgan sopol buyumlar keyinchalik murakkab kompozitsion ornamentlar bilan boyitilgan. Ayrim hollarda hayvonot va o‘simlik dunyosiga oid tasviriy elementlarning uchrashi kulollarning tabiatni kuzatish asosida badiiy obraz yaratishga intilganliklarini ko‘rsatadi.

Shuningdek, qadimgi davr kulolchilik buyumlarining hududlar kesimida farqlanishi ularning mahalliy maktablar shakllanishiga zamin yaratganini ko‘rsatadi. Bu jarayon keyingi tarixiy bosqichlarda Rishton, G‘ijduvon, Samarqand va Xorazm kabi yirik kulolchilik markazlarining yuzaga kelishiga asos bo‘lib xizmat qilgan. Demak, qadimgi davr kulolchilik tajribasi nafaqat o‘sha davr ehtiyojlarini qondirgan, balki keyingi davr milliy kulolchilik an’analarining shakllanishida ham muhim omil bo‘lgan.

Qadimgi davr kulolchilik san’ati taraqqiyotining yana bir muhim jihati uning madaniy meros sifatidagi ahamiyatidir. Arxeologik topilmalar orqali aniqlangan sopol buyumlar bugungi kunda o‘sha davr jamiyatining turmush tarzi, iqtisodiy faoliyati, diniy qarashlari hamda estetik tafakkuri haqida muhim ilmiy ma’lumotlar beradi. Shu



sababli kulolchilik buyumlari nafaqat amaliy san'at namunasi, balki tarixiy manba sifatida ham katta ilmiy qiymatga ega hisoblanadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak

O'zbekiston hududida kulolchilik san'atining qadimgi davrlardagi shakllanishi va rivojlanishi keyingi tarixiy davrlarda yuzaga kelgan hududiy kulolchilik maktablarining vujudga kelishi uchun mustahkam poydevor yaratdi. Ayniqsa, bu davrda shakllangan texnologik tajriba, bezak an'analari, shakliy kompozitsiyalar hamda estetik qarashlar o'rta asrlar kulolchilik san'atining yuksalishiga bevosita ta'sir ko'rsatdi. Shu tariqa qadimgi davr kulolchilik san'ati milliy kulolchilik an'alarining shakllanishida muhim tarixiy bosqich sifatida alohida ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Abdirasilov S. Tasviriy san'at o'qitish metodikasi. – Toshkent: Ilm-Ziyo, 2006.
2. Bulatov S. O'zbek xalq amaliy bezak san'ati. – Toshkent: Fan, 1991.
3. Bulatov S. Naqsh san'ati. – Toshkent: Qomuslar bosh tahririyati, 2008.
4. Axmedov M. O'zbekiston xalq amaliy san'ati tarixi. – Toshkent: O'qituvchi, 1997.
5. Sodiqov A. S. O'zbek xalq amaliy san'ati. – Toshkent: Tafakkur, 2010.
6. Jo'raev M. Jahon san'ati tarixi. – Toshkent: Fan, 2017.
7. Kulolchilik san'ati va hunarmandchilik bo'yicha maxsus adabiyotlar
8. Hakimov A. O'zbekiston amaliy san'ati. – Toshkent: Sharq, 2009.
9. Tursunov S. Hunarmandchilik tarixi va rivojlanishi. – Toshkent: Fan, 2015.
10. Rahimov Q. Rishton kulolchilik maktabi an'analari. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012.